



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Mardankulov Jasur Amirddinovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy mahoratni rivojlantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning o'rni, ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolar hamda ularning yechimlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, masofaviy ta'lim.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧИТЕЛЕЙ

Марданкулов Жасур Амирддинович

Центр педагогического мастерства Джизакской области, доцент

Аннотация

В статье анализируется роль, значение и эффективность использования современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процессе развития профессионального мастерства учителей. Рассматриваются актуальные проблемы, возникающие на практике, и разрабатываются научно-практические рекомендации по их решению. Показаны возможности повышения профессиональной компетентности педагогов и качества образования посредством внедрения цифровых технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, информационно-коммуникационные технологии, цифровое образование, инновационные методы, дистанционное обучение.

DIGITAL TRANSFORMATION IN TEACHERS' PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Mardankulov Jasur Amirddinovich

Jizzakh Regional Pedagogical Skills Center, Associate Professor

Abstract

The article analyzes the role, importance, and effectiveness of using modern information and communication technologies (ICT) in the development of teachers' professional skills. It examines current practical challenges and proposes scientific and practical recommendations for addressing them. The study also highlights the potential of digital technologies to enhance teachers' professional competence and improve the quality of education.

Keywords: professional skills, information and communication technologies, digital education, innovative methods, distance learning.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida kasbiy mahoratni oshirish har bir sohaga oid mutaxassislar oldida eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim va ishlab chiqarish tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari ularning kasbiy salohiyatini belgilab bermoqda.

Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli savodxonlikni oshirish, elektron resurslar va platformalardan keng foydalanish masalalari belgilab berilgan. Demak, kasbiy mahoratni oshirishda AKTdan foydalanish nafaqat zamonaviy ehtiyoj, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir[1].

Kasbiy mahorat tushunchasi va uni rivojlantirish zaruriyati:

Kasbiy mahorat – bu mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda ularni samarali qo'llash qobiliyatidir. U nafaqat malaka, balki kreativlik, tashabbuskorlik va zamon talablariga moslashuvchanlikni ham o'z ichiga oladi. XXI asr sharoitida kasbiy mahoratni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida raqamli vositalardan foydalanish belgilangan[2].

Kasbiy mahorat tushunchasi-Ilmiy manbalarda kasbiy mahorat (professional competence, professional mastery) mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui sifatida ta'riflanadi. Pedagogik adabiyotlarda (Jumaniyozova, 2022) kasbiy mahorat – bu nazariy bilimlar, amaliy tajriba va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligi bo'lib, u mutaxassisning ijtimoiy-iqtisodiy talablar darajasida faoliyat yurita olish imkoniyatini beradi. Xalqaro tadqiqotlarda (OECD, UNESCO) kasbiy mahorat kompetensiyalar tizimi orqali tushuntiriladi. Ya'ni, nafaqat texnik bilim, balki kommunikativ, kreativ va ijtimoiy ko'nikmalar ham kasbiy mahoratning tarkibiy qismlaridir.

Kasbiy mahoratni rivojlantirish zaruriyati hozirgi davrda quyidagi omillar bilan asoslanadi: Texnologik taraqqiyot – raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir mutaxassis zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi shart. Mehnat bozoridagi raqobat – global mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar ustunlikka ega bo'lmoqda. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash uchun mutaxassisning kasbiy mahorati doimiy yangilanib borishi zarur. Shaxsiy rivojlanish – kasbiy mahorat faqat ish faoliyatida emas, balki shaxsning o'zini o'zi anglashida, jamiyatdagi mavqeini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy mahoratni rivojlantirish uchun Ilmiy qarashlar va nazariy yondashuvlar:

- kognitiv yondashuv - kasbiy mahorat bilim, ko'nikma va malaka to'plamidan iborat.
- faoliyatga asoslangan yondashuv - kasbiy mahorat – bu amaliy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan sifat.
- kompetensiyaga asoslangan yondashuv - kasbiy mahorat kompetensiyalar majmuasi sifatida qaraladi (kasbiy, kommunikativ, axborot, innovatsion kompetensiyalar).
- innovatsion yondashuv - zamonaviy davrda kasbiy mahorat faqat mavjud bilimlarni qo'llash emas, balki yangilik yaratish, ijodiy yondashuvni ham talab qiladi.

Ilmiy qarashlardan ko'rinib turibdiki, kasbiy mahorat inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Uni rivojlantirish ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash, AKTdan samarali foydalanish, malaka oshirish kurslari hamda doimiy o'z ustida ishlash orqali ta'minlanadi[3].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kasbiy rivojlanishdagi o'rni:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy jamiyatda kasbiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. AKT nafaqat ta'lim jarayonini, balki ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko'rsatish sohalarini ham tubdan o'zgartirib, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirmoqda.

Kasbiy rivojlanishda AKTning o'rni - bilim va malaka oshirish, amaliy tajribani kengaytirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kasbiy muloqotni kengaytirishlarni o'z ichiga olib, bunda:

Bilim va malaka oshirish: onlayn kurslar, elektron ta'lim platformalari (Coursera, EdX, Moodle, Ziyonet) mutaxassislarning masofadan turib o'z bilimlarini yangilashiga imkon beradi.

Amaliy tajribani kengaytirish: virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va multimedia vositalari yordamida real ish jarayonlariga yaqin sharoit yaratiladi.

Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash: axborot tizimlari va sun'iy intellekt vositalari ijodkorlikni oshiradi, yangi g'oya va yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi[4].

Kasbiy mulqotni kengaytirish: videokonferensiya, onlayn forum va ijtimoiy tarmoqlar orqali xalqaro miqyosda tajriba almashish imkoniyati kengaymoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kasbiy rivojlanishda quyidagi sifatlarini ko'rishimiz mumkin:

- Elektron ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Coursera, Ziyonet) orqali masofadan turib bilim olish imkoniyatlari;
- Virtual laboratoriyalar yordamida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Sun'iy intellekt asosida tuzilgan ta'lim resurslari orqali individual yondashuvni ta'minlash;
- Onlayn seminar va vebinarlar kasbiy tajribani oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida qarash mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kasbiy rivojlanishda ilmiy qarashlar - pedagogik tadqiqotlarda (Karimov, 2023) ta'kidlanishicha, AKT mutaxassislarning axborot madaniyatini shakllantiradi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. UNESCO va OECD hisobotlarida esa AKT "umrbod ta'lim" konsepsiyasini amalga oshirishning eng samarali mexanizmi sifatida e'tirof etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kasbiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqadi:

- malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ijodiy va innovatsion salohiyatni rivojlantiradi;
- global mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shu bois, zamonaviy mutaxassis AKTni puxta o'zlashtirmasdan kasbiy jihatdan yuksalishi mumkin emas.

Dolzarb muammolar: Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish masalasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda. Kasbiy mahorat — bu nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning majmui, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi[5].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim, ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida keng qo'llanilib, kasbiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Elektron ta'lim platformalari, onlayn kurslar, masofaviy ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv resurslari mutaxassislarning doimiy ravishda bilim va ko'nikmalarini yangilashlariga imkon yaratmoqda.

Davlat siyosati darajasida ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida barcha sohalarida AKTni keng joriy etish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Dolzarb muammolar	Yechimlar
O'qituvchilarning AKT bo'yicha yetarli kompetensiyaga ega emasligi	Malaka oshirish kurslarida AKT kompetensiyasini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilash
Texnik ta'minotning ayrim hududlarda yetarli emasligi	Ta'lim muassasalarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash

Raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha motivatsiya pastligi	Elektron darsliklar va interaktiv resurslarni kengaytirish. Raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish
AKT vositalaridan samarali foydalanish metodikasining yetarli ishlab chiqilmagani.	Innovatsion pedagogik metodlarni (interfaol usullar, gamifikatsiya, loyiha asosida o'qitish) AKT bilan uyg'unlashtirish

Kasbiy mahoratni oshirish jarayonida AKTdan foydalanishning o'ziga xos afzalliklari mavjud:

- bilim olishning tezkorligi va qulayligi;
- o'quv jarayonida interfaollik va ijodkorlikni kuchaytirish;
- xalqaro miqyosda tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish;
- mutaxassisning o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar — texnik ta'minot yetishmasligi, pedagoglarning AKT kompetensiyasi pastligi, elektron resurslarning kamligi — mavjud bo'lib, ular jarayon samaradorligini cheklab turibdi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, kasbiy mahoratni oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb zaruratdir. AKTdan samarali foydalanish orqali:

- mutaxassislarning malakasini oshirish;
- ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish;
- xalqaro tajribaga mos raqamli ta'lim muhitini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Takliflar:

1. Ta'lim muassasalarida AKT bo'yicha majburiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
2. Elektron kutubxonalar va raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish.
3. AKT asosida yaratilgan amaliy loyihalarni qo'llab-quvvatlash.
4. Har bir mutaxassis uchun individual raqamli rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
3. Jumaniyozova M.T. Innovatsion pedagogikaning nazariy asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Xodjayev A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim. – Toshkent, 2021.
5. Karimov D. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik innovatsiyalar. – Samarqand, 2023.